



ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY
MATERIALLAR TANLAY BILISH TEXNIKASI

Madina Xurramova Abdunazar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Shabbazova D.R.

Ilmiy rahbar p.f.f.d (PhD).

Termiz davlat pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7659437>

Annotatsiya: Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslar vaqti o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, o'quvchi e'tiborini bilimga jalb etish mushkul. Buning uchun o'qituvchi tinmay izlanishi, ijodkor bo'lmog'i darkor. Bunday xolda, ayniqsa darsni o'yinlar asosida ko'rish tizimiga asoslanib o'tish sezilarli samara beradi. O'yinlar esa o'quvchi psixologiyasidan kelib chiqib, tanlangani ma'qul. Birinchi bo'lishga undash uslubi doimo o'zini oqlaydi. Chunki bolalar hamisha o'zini ko'rsatgisi, tengdoshlaridan bir qadam oldinda yurgisi keladi. Darslarda ham yangi ma'lumotlarni etkazishdan avval o'qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko'rgazmali vositalar, slaydlar, multimediya, tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaxkamlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya, ko'rgazmali vositalar, slaydlar, multimediya, tarqatma materiallar, kreativ fikrlash, tinglab tushunish, ona tili va o'qish savodxonligi

Darsda olib boriladigan ta'lim- tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri, o'quvchilarning o'zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o'quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, xayotda albatta yetuklikka yetaklaydi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilar bilimining mustahkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi. Mazkur maqolani tadqiq qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, izchillik, tarixiylik hamda obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Kasbiy terminologik lug'at boyligini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli obyektiv ochib berildi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish davri tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. N.I.Taylaqovning "Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari"[...] nomli o'quv qo'llanmasi metodologik manba qilib olindi.





Ta'lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar xaqida gap ketganda, ta'lim berish jarayonini ezgulik ko'prigiga o'xshatamiz, bu ko'prikdan o'quvchilarimizni bilimli, dunyoqarashi keng qilib olib o'tish ustozni, ya'ni o'qituvchilarni vazifasi deb bilamiz. Darslarning nazariy va amaliy qismida o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun pedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruhlarga bo'lingan xolda olib boriladi. Mashg'ulotlarni olib borish jarayonini kuzatib borish va kerakli maslahatlar berish kichik guruhlarda darslarni samarali o'tilishiga yordam beradi. O'z kasbini ustasi bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular xaqida o'quvchilarga so'zlab, savollarga xayotiy misollar keltirish bilan javob beriladi. Buning uchun faqat o'qish, o'rganish kerakligi haqida maslahat beradi. Bunday malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar, bahs- munozaralar tashkil etish ham o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Ota-onalarda farzandini yuksak ma'naviyatli, bilimli, komil inson etib voyaga yetkazish istagini yanada kuchaytirish zarur. O'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- a) o'quv jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish;
- b) ta'lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;
- c) dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;
- d) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi.
- e) o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- f) mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- g) kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'ektiga aylanishi;
- h) o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo'lishi va boshqalar.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur muloxaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish o'qish orqali tevarak atrof borliq xaqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish xar qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy kreativ fikrlash ko'nikmasini egallash nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish





darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda etkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlar va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek faoliyatga yo'nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e'tiborda bo'lishi lozim. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi va nutqini o'stirishning zaruriy omillaridan biri lug'atlar ustida ishlashdir. O'quvchilarning fikr darajasi, ongi, dunyoqarashlarini oshirish ularni mustaqil fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'rgatish, o'quvchilarni katta xajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlash muammosi yuzaga kelmoqda. Maktabdan kasb-hunar kollejiga o'qishga kelgan ko'p o'quvchilar mustaqil fikrlash va ishlash bo'yicha yetarlicha ko'nikmaga ega emas. Ayrımlari bilim olishga qiziqishlari juda past. Qobiliyatli, izlanuvchan hamda ijodkorlikka ishtiyoqi bor farzandlarimizni o'zi qiziqqan axborot kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishida chuqurlashtirilgan saboq olishi, ularni kelajakda albatta yuksak malakali mutaxassislar bo'lib yetishshishlarida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, Respublikamizning barcha ta'lim muassasalari o'quv jarayonida o'qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo'llash, ta'lim tizimida axborot texnologiyalardan unumli foydalanish, ular yordamida ta'lim tizimini talab darajasiga etkazish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda. O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi.

Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar





bo'lad. Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi o'qoidalarni yod oldirish edi.

Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'lad. Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilgan edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan. Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan. Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasida yoshlarga imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu jumladan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bolani yoshlik vaqtdan to'g'ri ta'lim – tarbiyaga yo'naltirib, jamiyatimiz uchun kerakli shaxs, kerakli kadr qilib tayyorlash eng muhim vazifalardan biridir. Ta'lim sohasiga kiritilgan o'zgartirishlar va yangiliklardan biri o'quvchilar uchun yangi darslik shakllanganidir. Ushbu Ona tili va o'qitish savodxonligi darsligini fanga kiritilishi sabablarini va o'quvchilar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi, foydali tomonlari haqida so'z yuritdim.

XULOSA: Mazkur vaziyatlar o'zida o'quvchining muammoni aniq anglashini ifodalaydi va uni bartaraf etish yangi bilim, metod va harakatlarni izlab topishni talab etadi. Agar o'quvchida boshlang'ich bilimlar yetishmasa, u muammoli





vaziyatlarni qabul qila olmaydi. Muammoli vaziyat nimanidir anglash uchun o'quvchiga mavjud bilimlar yetarli bo'lmasa; yangi talablar bilan o'quvchilarda mavjud bilimlar o'rtasida nomuvofiqlik aniqlansa (eski bilimlar bilan yangi faktlar o'rtasida, past va yuqori bilim darajalari o'rtasida, turmush va ilmiy bilimlar o'rtasida); ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni yangi amaliy sharoitlarda foydalanish zaruriyati, vazifalarni yechishning nazariy imkoniyatlari bilan tanlangan metodni amaliy amalga oshirish mumkin bo'lmasligi o'rtasida ziddiyatlar hamda o'quv topshiriqlarini bajarishda amaliy erishilgan natijalar bilan o'quvchilarda uni nazariy asoslashga bilimlar yetishmasligi o'rtasida ziddiyatlar bo'lgan holatlarda yuzaga keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, ta'limning mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablar o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish metodlari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etmoqda. O'qitish metodlarining turlari juda ko'p, ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Ular pedagogik amaliyot davrida tinmay boyib boraveradi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga qarab tasniflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz 7-jild i O'zbekiston, 1999-y.
2. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan Davlat ta'lim standarti. boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2006. 5-son.
3. Boshlang'ich ta'lim takomillashtirilgan O'quv dasturi. "Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2006. 5-son.
4. T.G'afforova, Sh.Nundlayeva. O'qish kitobi. 2-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. - T.. "Sharq". 2012. - 144 b.
5. N.Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. "Moliya", 2003 172 b.
6. R.Jo'rayev, A.Zunnunov. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash. T.. "Sharq". 2005. 80 b.
7. T.G'afforova va boshqalar "O'qish kitobi", I-sinf. I. "Sharq», 2013 128-b.
8. T.G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar". T.. "Tafakkur", 2011-yil.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati, I, V-jildlar. "O'zbekiston ilmiy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 2010-yillar.

